

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektori
X.B. Yunusov



MAKROIQTISODIYOT-2

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	– Biznes va boshqaruv
Mutaxassislik:	70410102	– Iqtisodiyot

Samarqand-2024

Fan/modul kodi MAKIQ 21205		O'quv yili 2024 – 2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 5	
Fan modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 8	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Makroiqtisodiyot-2	60		90	150
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga zamonaviy bozor iqtisodiyotining ishlashi va rivajlanishining ham nazariy, ham amaliy tomonlarini o'rgatish hamda bozor sub'yektlarining har xil bozor tuzilmalaridagi iqtisodiy faoliyatini o'rganish bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakillantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi – iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni chukurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'lik masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda makroiqtisodiyot fani muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi kunda hukum surayotgan globallashuv sharoitida, qishloq xo'jaligida yaratilayotgan mahsulot, tovar va xizmatlar narxining o'zgarishi, foydani maksimallashtirish, noaniklik sharoitida qaror qabul qilish, shuningdek, narxga va boshqa omillarga bog'lik talab va taklif elastikligining mazmun mohiyati, davlatning bozorga aralashuvi, ya'ni tovarlarga minimal va maksimal narxlarni o'rnatish va uning oqibatlari bilan bog'liq tushunchalar, qarashlarni sababiy bog'liklikda tizimli tahlil etishda “Makroiqtisodiyot” fani alohida o'rin tutadi.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Makroiqtisodiyotga kirish.</p> <p>Makroiqtisodiyot fanining nazariy asoslari, shakllanishi va rivojlanishi. Makroiqtisodiyot kursining predmeti va ob'yekti. Makroiqtisodiyotning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiy tahlil, makroiqtisodiyot.</p> <p>Makroiqtisodiy tadqiqot usullari. Daromadlar-xarajatlar” va “resurslar-mahsulotlar” oqimi. Makroiqtisodiy modellar tushunchasi. Makroiqtisodiy modellar ko'rinishlari.</p> <p>2-mavzu. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash</p> <p>Makroiqtisodiyot fanining milliy hisobchilik tizimidagi roli va o'rni. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash asosi.</p> <p>Yalpi ichki mahsulot. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari. Milliy hisoblar tizimida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.</p> <p>Nominal yalpi ichki mahsulot. Nominal yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari. Real yalpi ichki mahsulot. Real ichki mahsulotni hisoblash usullari.</p>				

3-mavzu. Bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi . Ishsizlik.

Iqtisodiy davr tushunchasi va uning bosqichlari. Iqtisodiy davrlarning yuzaga kelish sabablari va dastlabki ko'rinishlari. Iqtisodiy davrlarning asosiy tiplari. Iqtisodiy davrlarning ta'siri. Davlatning davriylikka qarshi siyosati.

Ishsizlik tushunchasi va ishsizlikning o'lchanishi. Ishsizlik turlari. Ish o'rnini ta'minlash. Ish o'rinlarining bir qator belgilari. Ish o'rinlarini tashkil etish, rejalashtirish va xizmat ko'rsatish. Ishsizlik tasnifi. Ishsizlik turlari. Tabiiy ishsizlik Majburiy ishsizlik. Tarkibiy ishsizlik.

4-mavzu. Inflatsiya va inflatsiya siyosati.

Inflatsiya tushunchasi, mohiyati va mazmuni. Inflatsiyaning yuzaga kelish shart-sharoitlari. Inflatsiyaning ko'rsatkichlari va ularni o'lchanishi. Inflatsiyaning o'sish sur'atlariga ko'ra turlari.

Inflatsiya sabablari. Inflatsiyani oldini olish chora tadbirlari. Inflatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Inflatsiyaga qarshi davlat siyosati.

O'zbekiston Respublikasida inflatsiyani kamaytirish bo'yicha olib borilayotgan iqtisodiy-siyosiy islohotlar.

5-mavzu. Yalpi talab – yalpi taklif modeli.

Yalpi talab tushunchasi. Yalpi talabga va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar. Yalpi taklif tushunchasi. Yalpi taklifga ta'sir etuvchi omillar. AD-AS modelida narxlar.

Yalpi taklif modeli va uni amalga oshirish yo'nalishlari. Milliy ishlab chiqarish real hajmining muvozanatli darajalari. Davlat budjeti orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi.

6-mavzu. Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari.

Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari. Iste'mol va jamg'arishga chegaralangan hamda o'rtacha moyillik. O'zbekistonda iste'mol va jamg'arish jarayonlari xususiyatlari.

Investitsiya haqida tushuncha, ularning iqtisodiy mazmuni, ahamiyati zaruriyati. Investitsiya turlari va shakllari. Investitsiya xarajatlari va ularning tiplari. Investitsiya grafigi va funktsiyasi. Investitsiyalar va jamg'armalar o'rtasida bog'liqlik.

7-mavzu. Pulga talab funksiyasi. Pul taklifi. Pul bozorida muvozanat.

Pul tushunchasi va uning funksiyalari. Pul agregatlari. Pul taklifi. Bank multiplikatori. Pul taklifining kengaytirilgan modeli. Pul multiplikatori.

Pul nazariyalari to'g'risida umumiy tushuncha. Pul nazariyalarining kelib chiqishi, turlari va namoyondalari. Pulning metallik nazariyasi. Pulning nominallik nazariyasi.

Pulning miqdoriylik nazariyasi Zamonaviy monetarizm nazariyasi. Pulga talabning klassik nazariyalari. Keynscha pulga talab nazariyalari. Pul bozorida muvozanat.

8-mavzu. Davlat byudjeti va soliqlar. Davlatning byudjeti – soliqlar siyosati.

Budjet-soliq siyosati. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi, uning bo'g'inlari. Budjet tizimining asosiy tamoyillari. Turli darajadagi buydjetlar o'rtasida daromad va xarajatlarni taqsimlash asoslari. Budjet tizirni bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllari. Budjet taqchilligi va uni moliyalashtirish vositalari.

Soliqlarning turlari va funksiyalari. Davlat qarzlar. Budjet-soliq siyosatining mohiyati va usullari. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiscal siyosat. Diskret va nodiskret fiscal siyosat. Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi. Davlat xarajatlari multiplikatori. Soliq multiplikatori.

9-mavzu. Bank tizimi. Pul-kredit siyosati

Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi va uning shakllanish bosqichlari. Xorijiy davlatlar bank tizimi. Bank faoliyatining iqtisodiy, me'yoriy-huquqiy va tashkiliy asoslari. Zamonaviy bank tizimining xususiyatlari. Moliya-kredit institutlari.

Pul-kredit siyosatining maqsadlari. Pul-kredit siyosatining vositalari. Ochiq bozordagi operatsiyalar va hisob stavkasi. Majburiy zahiralash normasi. Qattiq –kredit siyosati. Yumshoq pul-kredit siyosati.

10-mavzu. Iqtisodiy o'sish: umumiy tavsifi, neokeynscha va neoklassik modellari

Iqtisodiy o'sishning umumiy tavsifi, mazmuni, neokeynscha va neoklassik modellari. Iqtisodiy o'sish omillari va tiplari.

Iqtisodiy o'sishning Xarrod Domar modeli, vujudga kelishi, uning qo'llanilish sohasi va o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy o'sishning Solou modeli, uning qo'llanilish sohasi va o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish. O'zbekistonda o'sish sur'atlari. Davlat tomonidan ko'rilayotgan chora tadbirlar va erishilgan yutuqlar.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash.
2. Bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi.
3. Ishsizlik va uning turlari, ularni kamaytirish imkoniyatlari.
4. Inflatsiya va inflatsiya siyosati.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, i.f.d. A.I.Alikulov, i.f.n., katta o'qituvchi R.Kudratovlar tomonidan 70410102-Iqtisodiyot mutaxassisligi uchun "Makroiqtisodiyot-2" fanidan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni chukurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'lik masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda makroiqtisodiyot fani muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi kunda hukum surayotgan globallashuv sharoitida, qishloq xo'jaligida yaratilayotgan mahsulot, tovar va xizmatlar narxining o'zgarishi, foydani maksimallashtirish, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish, shuningdek, narxga va boshqa omillarga bog'lik talab va taklif elastikligining mazmun mohiyati, davlatning bozorga aralashuvi, ya'ni tovarlarga minimal va maksimal narxlarni o'rnatish va uning oqibatlari bilan bog'liq tushunchalar, qarashlarni sababiy bog'liklikda tizimli tahlil etishda "Makroiqtisodiyot" fani alohida o'rin tutadi.



"Makroiqtisodiyot-2" bo'yicha o'quv dasturi magistraturaning 70410102-Iqtisodiyot mutaxassisligi uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quv rejada majburiy fanlar blokidan o'rin olgan. ushbu fanni o'zlashtirish uchun jami 150 soat ajratilgan.

O'quv dasturi makroiqtisodiyotga kirish asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash, bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi, ishsizlik, inflatsiya va inflatsiya siyosati yalpi talab – yalpi taklif modeli, iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari, pulga talab funksiyasi, pul taklifi, pul bozorida muvozanat davlat byudjeti va soliqlar, davlatning byudjeti – soliqlar siyosati, bank tizimi, pul-kredit siyosati, iqtisodiy o'sish kabi dolzarb mavzularini o'z ichiga olgan.

Mazkur fan dasturi "Makroiqtisodiyot-2" fani bo'yicha talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni to'la qamrab olgan.

Umuman olganda mazkur o'quv dasturi qo'yilgan talablarga mos holda tayyorlangan bo'lib, shu dastur asosida 70410102-Iqtisodiyot mutaxassisligi magistrantlarini o'qitishda foydalanish uchun tavsiya etaman.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti "Iqtisodiyot va biznes" kafedrası, i.f.b.f.d. (PhD)



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti professori A.I.Alikulov, i.f.n., katta o'qituvchi R.Kudratovlar tomonidan 70410102-Iqtisodiyot mutaxassisligi uchun "Makroiqtisodiyot-2" fanidan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Makroiqtisodiyot-2" fani muhim ahamiyat kasb etadi

"Makroiqtisodiyot-2" fani o'quv rejada majburiy fanlar blokidan o'rin olgan bo'lib, ushbu fanni o'zlashtirish uchun jami 150 soat, shundan 20 soat ma'ruza, 40 soat amaliy va 90 soat mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

"Makroiqtisodiyot-2" fani talabalarga iqtisodiy jarayonlar, voqea-hodisalar obyektiv tahlil etish, iqtisodiy jarayonlarni bilishga, tafakkur qilishga va mustaqil ravishda tahlil etishga o'rgatishdan iborat.

"Makroiqtisodiyot-2" fani o'quv dasturini mazmuni shuni ko'rsatadiki, fan dasturini tayyorlashda fanni o'rganish ketma-ketligiga rioya qilingan holda tartib bilan tuzilib, shu fanni o'rganish ketma-ketligiga mos keladi.

"Makroiqtisodiyot-2" fani o'quv dasturi o'z ichiga 10 ta ma'ruza va 20 ta amaliy mashg'ulot darslarga mo'ljallangan mavzularni qamrab olib, magistrnlarga nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, iqtisodiyot osish va iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini, iqtisodiy tizimi va uning o'ziga xos jihatlarini nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.


Umuman olganda, mualliflar tomonidan tayyorlangan "Makroiqtisodiyot-2" fani o'quv dasturi qo'yilgan talablarga javob beradi, magistrantlarda ushbu fan bo'yicha yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun mos holda tuzilgan, undan 70410102-Iqtisodiyot mutaxassisligiga o'qitishda fan dasturi sifatida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

"Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi mudiri,

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

K.J.Mirzaev



5. Yalpi talab va taklif modeli.
6. Iste'mol va ularning funksiyalari.
7. Jamg'arish, ularning funksiyalari.
8. Investitsiya va uning funksiyalari.
9. Keiynsning tovarlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli.
10. Keiynsning xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli.
11. Pulga talab funksiyasi.
12. Pul taklifi. Pul bozorida muvozanat.
13. Davlat budjeti.
14. Soliqlar va ularning turlari.
15. Bank tizimi.
16. Pul-kredit siyosatining maqsadlari
17. Tovar va pul bozorlarining birgalikdagi muvozanati.
18. Iqtisodiy o'sish: umumiy tavsifi, neokeynscha va neoklassik modellari.
19. Xalqaro savdo nazariyalari.
20. Iqtisodiy o'sish omillari va tiplari

III.II. Fan bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

IV. Fan bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida korxona foydasi va uni maksimallashtirish yo'llari.
2. Talab va taklif qonuniga ko'ra narx belgilash usullari.
3. Talab va taklif asosida soliq yukini hisoblash.
4. Talab va taklif elastikligiga ko'ra soliq yukini hisoblash
5. Ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish shartlari.
6. Korxoning zararsiz ishlash nuqtasini hisoblash yo'llari.
7. Raqobatlashgan bozorda, qisqa muddatli oraliqda firma foydasini maksimallashtirish va uning taklifi.
8. Raqobatlashmagan bozor sharoitida monopol narxlar.
9. Raqobatlashmagan bozor sharoitida monopol narx belgilash va bozor hokimiyati.
10. Mehnat bozori.
11. Korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanish.
12. Kapital qo'yilmalar va kapital bozori.
13. Ishlab chiqarish jarayoniga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilish zaruriyati va istiqbollari.

	<p>14. Makroiqtisodiy modellar.</p> <p>15. Asosiy makroiqtisodiy modellarning qiyosiy modellari.</p> <p>16. Milliy hisoblar tizimida yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini hisoblash shartlari va usullari.</p> <p>17. Talab va taklif qonuniga ko'ra narx belgilash usullari</p> <p>18. Bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi</p> <p>19. Ishsizlik va uni kamaytirish imkoniyatlari.</p> <p>20. Inflatsiya va inflatsiya siyosati.</p> <p>21. Yalpi talab – yalpi taklif modeli.</p> <p>22. Iste'mol va jamg'arish, ularning funksiyalari</p> <p>23. Investitsiya va uning funksiyalari.</p> <p>24. Keynsning tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli</p> <p>25. Pulga talab funksiyasi. Pul taklifi. Pul bozorida muvozanat.</p> <p>26. Davlat budjeti va soliqlar. Davlatning budjet-soliq siyosati</p> <p>27. Bank tizimi. Pul-kredit siyosati</p> <p>28. IS-LM modeli.</p> <p>29. Iqtisodiy o'sish: umumiy tavsifi, neokeynscha va neoklassik modellari.</p> <p>30. Xalqaro savdo nazariyalari. Tashqi savdo siyosati.</p> <p>Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda internet tarmoqlaridan foydalanib referat va uning taqdimoti, xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanishi, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqishi tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilish kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • makroiqtisodiyot tushunchasi va asoslari, iqtisodiy rivojlanish omillari, iqtisodiy rivojlanish nazariyalari haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i> • makroiqtisodiyot nazariyalari asoslarini, iqtisodiy rivojlanish qonunlari, asosiy tushunchalar, iqtisodiy jarayonlarning xususiyatlarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i> • talaba makroiqtisodiyot jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, iqtisodiy rivojlanish muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</i>
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfacl keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish;

	<ul style="list-style-type: none"> • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratini muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Zaxidov G'E., M.T. Asqarova, Z.A. Djumayev, L.F. Amirov, H.A. Hakimov. Makroiqtisodiyot. Darslik. - T.: 2019. - 290 bet.</p> <p>2. N.M. Maxmudov, A.B. Shakarov, X.A. Ulashev, J. A. Shakarov. Makroiqtisodiyot. Darslik. TOSHKENT - 2022</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>1. Mirziyoyev Sh.M. <i>Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон</i>. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024 yil.</p> <p>2. Mirziyoyev Sh.M. <i>Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi</i>. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil.</p> <p>3. N. Gregory Mankiw. <i>Macroeconomics</i>. 9 th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2016</p> <p>4. Ishmuhamedov A.E., Djumaev Z.A., Jumaev Q. X. Makroiqtisodiyot: O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. -192 bet.</p> <p>Axborot manbaalari</p> <p>1. www.lex.uz -- O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi</p> <p>2. www.imv.uz -- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti</p> <p>3. www.norma.uz -- axborot-huquqiy portali</p>
7.	<p>Fan dasturi Samarqand davlar veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2"-avgustdagi "12"-sonli bayoni bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>A.I. Alikulov – SamDVMCHBU, "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori</p> <p>Kudratov R. – SamDVMCHBU, "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası katta o'qituvchisi, iqtisodiyot fanlari nomzodi</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>1. Mirzayev K.J. - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Raqamli iqtisodiyot" kafedrası mudiri, i.f.d., professor.</p> <p>2. Muratov Sh.A. - Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti "Iqtisodiyot va biznes" kafedrası i.f.b.f.d. PhD</p>